

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



O'RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) GEOGRAFIYASI VA
TARIXI
(MALAYZIYA)

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	-	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000	-	Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100	-	Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)


TDSHU "Sharq sivilizatsiyasi va falsafa" fakulteti dekani



(imzo)

M.M.Askarov


"Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrası mudiri



(imzo)

Sh.I.Ikromov

TDSHU, ARM boshlig'i



(imzo)

M.Yuldasheva

Fan/modul kodi MAM1308	O'quv yili 2026/2027	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	“O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi” (Malayziya)	96	144	240
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Malayziya) fanining nazariy va amaliy asoslari, Malayziya tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, janubi-sharqiy Osiyo hududida malaylarning paydo bo'lishi va ushbu mintaqada ilk davlatchilik paydo bo'lishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, janubi-sharqiy Osiyo hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - malay xalqlari davlatchilik tarixining shakllanishi, rivojlanishi va malay etnosining paydo bo'lish bosqichlarini kuzatish; turli davr (qadim zamon, o'rta asr, yangi va eng yangi zamon) dagi malay jamiyatning rivojlanish tarixini o'rganishdan iborat. Ushbu fan hozirgi Malayziyadagi vaziyatni to'laroq tushunib olish uchun zarur va dolzarbdir. Malayziya siyosiy tarixining xususiyatlari va nozik jihatlari, an'analari va hozirgi hayotini bilish talabalar uchun zarur bo'lgan amaliy ahamiyatga egadir. Malayziya tarixining barcha bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti; mamlakatda qadimdan hozirgacha davlatchilik jarayonlari tarixi; xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va roli; xalqlarning madaniy rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy bosqichlari; dunyo xalqlari madaniyatining o'zaro aloqalari va ta'siri; qadimdan hozirgi kungacha mintaqada shakllangan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar, iqtisodiy dunyo qarashlar; mamlakatdagi dinlar, diniy munosabatlar va ularning mazhab hamda oqimlari hamda ularni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va rolini aniqlash kabi masalalarni ochib berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Lomonosov Moscow State University) (THE 95) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://iaas.msu.ru/wp-content/uploads/2023/09/uch-plan-bak-2023.pdf</p>			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

QADIMGI DAVR

1-mavzu. Malayziyaning geografik makoni va tarixiy taraqqiyotiga ta'sir etgan geosiyosiy omillar

Bu mavzuda Malayziyaning Janubi-Sharqiy Osiyodagi strategik joylashuvi o'rganiladi. Malakka bo'g'ozining xalqaro savdo yo'llaridagi o'rni tahlil qilinadi. Hududning Xitoy va Hindiston o'rtasidagi vositachilik roli yoritiladi. Geografik joylashuvning bosqinchiliklar va mustamlakachilikka sabab bo'lgani tushuntiriladi. Geosiyosiy omillar davlat taraqqiyotiga qanday ta'sir qilgani ilmiy asosda ochib beriladi.

2-mavzu. Malayziya hududining shakllanish tarixi va tabiiy-relyef xususiyatlari

Mavzuda Malay yarimoroli va Borneo hududlarining geologik shakllanishi yoritiladi. Tog'lar, tekisliklar va qirg'oq hududlarining xususiyatlari tahlil qilinadi. Aholi joylashuvi relyef bilan qanday bog'langanligi ochib beriladi. Qadimgi manzilgohlarning paydo bo'lishida tabiiy sharoitning o'rni tushuntiriladi. Relyefning xo'jalik faoliyatiga ta'siri ilmiy asosda izohlanadi.

3-mavzu. Malayziyada iqlim va uning xo'jalik hamda tarixiy taraqqiyotga ta'siri

Bu mavzu ekvatorial iqlimning asosiy belgilariga bag'ishlanadi. Musson yomg'irlari va doimiy issiqlik sharoiti tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining iqlimga bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Dengiz savdosining rivojiga iqlim omili qanday ta'sir qilgani o'rganiladi. Iqlimning tarixiy aholi joylashuviga ta'siri izohlanadi.

4-mavzu. Malayziya suv resurslari va ularning sivilizatsiyalar rivojidadagi o'rni

Mavzuda Malayziyaning yirik daryolari va dengiz hududlari o'rganiladi. Rajang, Pahang va Kinabatangan daryolarining xo'jalikdagi roli tahlil qilinadi. Malakka bo'g'ozining global savdodagi ahamiyati yoritiladi. Suv yo'llarining migratsiya jarayonlariga ta'siri tushuntiriladi. Daryolar atrofida sivilizatsiyalar shakllangani ilmiy asosda bayon etiladi.

5-mavzu. Malayziya tabiiy boyliklari va mustamlakachilik davri iqtisodiy siyosati

Bu mavzu qalay, kauchuk va o'rmon resurslarining ahamiyatiga bag'ishlanadi. Mustamlakachilar tomonidan tabiiy boyliklarning

ekspluatatsiya qilinishi tahlil etiladi. Xomashyo eksportiga asoslangan iqtisodiy model yoritiladi. Tabiiy boyliklar uchun olib borilgan geosiyosiy raqobat izohlanadi. Bu jarayonlarning mahalliy aholi hayotiga ta'siri ko'rsatib beriladi.

6-mavzu. Malayziyaning ekologik muhiti va tarixiy demografik jarayonlar

Mavzuda tropik o'rmonlar va biologik xilma-xillik yoritiladi. Ekologik muhitning aholi hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Ichki va tashqi migratsiya jarayonlari o'rganiladi. Etnik tarkibning shakllanishiga tabiat omillari ta'siri ko'rsatiladi. Zamonaviy ekologik muammolar tarixiy nuqtai nazardan izohlanadi.

7-mavzu. Malay arxipelagida qadimgi sivilizatsiyalar va ularning geografik muhit bilan bog'liqligi

Ushbu mavzu Malay arxipelagidagi neolit davri va ilk aholi manzilgohlarini o'rganishga bag'ishlangan. Talabalar dengizchilik, baliq ovlash va dastlabki savdo aloqalarini tahlil qiladilar. Qadimgi madaniy qatlamlarning shakllanishi va arxeologik topilmalar asosida tarixiy jarayonlar ochib beriladi. Sivilizatsiyalar geografik muhit, suv resurslari va relyef bilan qanday uzviy bog'langanligi ko'rsatib beriladi. Shu orqali talabalar jamiyatlarining rivojlanishida tabiiy sharoitning muhimligini tushunadilar.

O'RTA ASRLAR

8-mavzu. Hindu-buddaviy davlatlar davri (I–XIV asrlar)

Bu mavzu Srivijaya va Majapahit imperiyalariga bag'ishlanadi. Ularning siyosiy tuzilishi va boshqaruv tizimi o'rganiladi. Hindu-buddaviy madaniyatning jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Savdo aloqalarining xalqaro miqyosda kengayishi yoritiladi. Diniy e'tiqodlarning madaniyat va yozuvga ta'siri izohlanadi.

9-mavzu. Malakka sultonligining tashkil topishi va davlat boshqaruvi (XV asr)

Mavzuda Malakka davlatining tashkil topish sabablari yoritiladi. Islomning davlat dini sifatida qaror topishi tahlil qilinadi. Malakkaning yirik savdo markaziga aylanishi o'rganiladi. Sultonlikning siyosiy va iqtisodiy qudrati izohlanadi. Bu davlatning butun mintaqaga ta'siri ko'rsatib beriladi. Malakka xalqaro savdo yo'llari orqali tinchlik va boylikka erishgan, shuningdek, mintaqaviy qudrat sifatida o'zini namoyon qilgan. Sultonlik siyosiy tizimi, qonunlar va hukmdorlarning vakolatlari o'rganiladi. Mavzu Malayziya tarixida mustamlakachilik davridan oldingi siyosiy va iqtisodiy asoslarni

tushunish imkonini beradi.

10-mavzu. Islom sivilizatsiyasining Malay yarimoroliga ta'siri

Bu mavzuda islom huquqi va axloqiy qadriyatlarini o'rganiladi. Ta'lim tizimi va madrasalarning roli tahlil qilinadi. Yozuv va adabiyotda islomiy an'analarning ta'siri yoritiladi. Davlat boshqaruvida islom qoidalarining o'rni tushuntiriladi. Islom madaniy integratsiyaga xizmat qilgani izohlanadi. Madrasalar, yozuv va adabiyotdagi islomiy an'analarning roli yoritiladi. Islom qoidalari davlat boshqaruvida va siyosiy qaror qabul qilishda qanday qo'llanganligi ko'rib chiqiladi. Diniy qadriyatlar va siyosiy institutlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, shuningdek, Malayziya madaniy integratsiyasining tarixiy ildizlarini o'rganiladi.

YANGI DAVR (XVI-XIX ASRLAR)

11-mavzu. Yevropa mustamlakachiligining boshlanishi: Portugaliyaning Malakkani bosib olishi va dengiz savdo yo'llari uchun kurash (1511–1641)

Yevropa davlatlarining Janubi-Sharqiy Osiyoga kirib kelishining asosiy sabablari va geosiyosiy maqsadlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. 1511-yilda Portugaliya tomonidan Malakka shahrining bosib olinishi mintaqa tarixida tub burilish yasagan voqea sifatida o'rganiladi. Portugaliyaliklar Malakka bo'g'ozini orqali o'tuvchi xalqaro savdo yo'llarini, ayniqsa ziravorlar savdosini nazorat qilishni asosiy maqsad qilgan edi. Portugaliya mustamlakachiligi davrida harbiy istehkomlar qurildi, katolik missionerlar faoliyati kuchaydi va mahalliy musulmon savdogarlar savdo tizimidan siqib chiqarildi. Bu holat Malay dunyosining siyosiy va iqtisodiy barqarorligiga jiddiy zarba berdi. Mavzu yakunida portugallar hukmronligining mahalliy davlatlar zaiflashishi va keyingi bosqichdagi mustamlakachilik jarayonlariga zamin yaratgani asoslab beriladi.

12-mavzu. Savdo mustamlakachiligidan kompaniya hukmronligiga o'tish: Gollandiya Sharqiy Hind kompaniyasining Malakkadagi siyosati (1641–1824)

Ushbu mavzuda Portugaliya hukmronligidan keyin Gollandiya mustamlakachilik siyosatining o'rnatilishi jarayonlari o'rganiladi. 1641-yilda Malakkaning Gollandiya Sharqiy Hind kompaniyasi (VOC) tomonidan egallanishi savdo monopoliyasi tizimini mustahkamladi. Gollandlar Malakkani harbiy-siyosiy markaz sifatida emas, balki savdo tranzit nuqtasi sifatida boshqargan. Ular ziravorlar, qalay va boshqa strategik mahsulotlar savdosini qattiq nazorat ostiga oldilar. Gollandiya davrida mustamlaka boshqaruvi kompaniya manfaatlariga bo'ysundirildi, mahalliy sultonliklarning siyosiy mustaqilligi esa cheklab qo'yildi. Bu mavzu orqali

talabalar mustamlakachilikning savdo kapitalizmi bosqichini chuqur anglab yetadilar. Aynan shu davr keyinchalik Buyuk Britaniya mustamlakachiligi uchun iqtisodiy-institutsional poydevor bo'lib xizmat qilgani ilmiy asosda yoritiladi.

13-mavzu. Zamonaviy Malayziya davlat tizimining shakllanishi: Buyuk Britaniya mustamlakachiligi davri (XIX asr – 1957)

Mazkur mavzuda Buyuk Britaniya hukmronligi ostida Malayziyaning siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy tizimi qanday shakllanganligi kompleks tarzda tahlil qilinadi. XIX asr o'rtalaridan boshlab Britaniya federativ boshqaruv tizimini joriy qildi va Malay sultonliklarini o'z nazoratiga oldi. Plantatsiya xo'jaligi, temiryo'l tarmoqlari, portlar va sanoat infratuzilmasi barpo etilib, mamlakat xomashyo bazasiga aylantirildi. Britaniya davrida xitoy va hind migratsiyasi kengayib, zamonaviy ko'p millatli jamiyat shakllandi. Huquqiy tizim, ta'lim, davlat xizmatlari va soliq tizimi britan modeli asosida tashkil etildi. Mavzu yakunida Buyuk Britaniya mustamlakachiligi bugungi Malayziya davlat tuzumi, iqtisodiy modeli va siyosiy barqarorligining tarixiy asosi ekanligi ilmiy dalillar asosida asoslab beriladi.

14-mavzu. Etnik-demografik muhitning shakllanishi: Xitoy va Hindiston migratsiyasi hamda ko'p millatli Malayziya jamiyatining vujudga kelishi (XIX-XX asrlar)

Ushbu mavzuda Malayziya jamiyatining bugungi ko'p millatli tarkibi qanday tarixiy jarayonlar natijasida vujudga kelgani o'rganiladi. XIX asrda Britaniya mustamlakachiligi davrida Xitoydan qalay konlari uchun, Hindistondan esa kauchuk plantatsiyalari uchun ishchi kuchi olib kelingan. Bu jarayon Malayziyada etnik mehnat taqsimoti va iqtisodiy tabaqalanishni shakllantirdi. Mustamlakachilarning "bo'lib boshqarish" siyosati millatlararo tafovutlarni kuchaytirdi. Shu bilan birga, migratsiya shaharlar rivoji, savdo va ta'lim tizimining shakllanishiga turtki berdi. Mavzu Malayziya mustaqillikdan keyingi millatlararo siyosatini tushunish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

15-mavzu. Mustamlakachilik davrida Malayziya iqtisodiyotining shakllanishi: plantatsiyalar, kon sanoati va tashqi bozorlar

Bu mavzu Britaniya iqtisodiy siyosatining mohiyatini ochib beradi. Kauchuk plantatsiyalari va qalay konlari faoliyati o'rganiladi. Tashqi savdo va eksport tizimi tahlil qilinadi. Mehnat migratsiyasi iqtisod bilan bog'lanib izohlanadi. Mustamlaka iqtisodiyotining oqibatlari yoritiladi.

ENG YANGI DAVR (XX ASR O'RTALARI – XX ASR OXIRI)

16-mavzu. Ikkinchi jahon urushi davrida Malayziya: Yaponiya bosqini

va mustamlakachilik tizimining inqirozi (1941–1945)

Ushbu mavzuda Ikkinchi jahon urushi yillarida Malayziya hududining Yaponiya tomonidan bosib olinishi va uning siyosiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilindi. 1941-yilda Yaponiya qo'shinlari Malaya yarimoroliga bostirib kirib, qisqa muddat ichida britan mustamlakachilik tizimini mag'lub etdi. Yaponiya hukmronligi davrida britan majburiy mehnat, oziq-ovqat tanqisligi va ommaviy jazolash siyosati kuchaydi. Shu bilan birga, Yaponiya "Osiyo osiyoliklar uchundir" shiorini ilgari surib, mustamlakachilikka qarshi kayfiyatni kuchaytirdi. Urush natijasida Britaniya imperiyasining nufuzi pasaydi va mustaqillik harakatlari uchun qulay sharoit vujudga keldi.

17-mavzu. Malayziyaning mustaqillikka erishish jarayoni va milliy davlatchilikning shakllanishi (1945–1957)

Mazkur mavzuda urushdan keyingi davrda Malayziyada mustaqillik yo'lidagi siyosiy kurashlar va siyosiy partiyalar faoliyati o'rganiladi. Britaniya mustamlakachiligiga qarshi harakatlar kuchayib, UMNO, MCA va MIC kabi siyosiy tashkilotlar vujudga keldi. 1957-yil 31-avgustda Malaya Federatsiyasi rasman mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Mustaqillik jarayoni nisbatan tinch siyosiy muzokaralar yo'li bilan amalga oshgani bilan ajralib turadi. Bu davrda konstitutsion monarxiya asoslari shakllantirildi va federal boshqaruv tizimi yaratildi.

18-mavzu. Malayziya Federatsiyasining tashkil topishi va milliy hududiy birlashuv siyosati (1963-yil)

Ushbu mavzuda Malayziya davlatining hozirgi hududiy-siyosiy shakli qanday vujudga kelgani yoritiladi. 1963-yilda Malaya Federatsiyasiga Sabah, Saravak va Singapur qo'shilishi natijasida Malayziya Federatsiyasi tashkil etildi. Bu jarayon Buyuk Britaniyaning Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosiy manfaatlari va sovuq urush sharoiti bilan chambarchas bog'liq edi. Birlashuv ichki siyosiy ziddiyatlarga ham sabab bo'ldi va 1965-yilda Singapur federatsiyadan ajralib chiqdi. Shundan so'ng Malayziya ko'p millatli, federal va monarxik davlat sifatida mustahkamlandi.

19-mavzu. Malayziya davlat tuzumi va siyosiy boshqaruv tizimi: konstitutsiyaviy monarxiya va federal boshqaruv

Ushbu mavzu Malayziya siyosiy tizimi va boshqaruv shakllarini o'rganishga bag'ishlangan. Talabalar federal boshqaruv tizimi va konstitutsiyaviy monarxiyaning qanday ishlashini, sultonlar va hukumat o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini tahlil qiladilar. Mavzu siyosiy barqarorlikni saqlovchi tuzilmalar va qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Malayziya 9 sultondan iborat bo'lib, ular navbat bilan oliy hukmdor bo'lishadi, bu tizim millatlararo muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

20-mavzu. Malayziyaning etnik tarkibi va demografik rivojlanishi: ko'p millatli jamiyatning shakllanishi

Ushbu mavzu Malayziya aholisining tarixiy va zamonaviy demografik tuzilishini o'rganishga qaratilgan. Talabalar Malay, xitoy, hind va boshqa etnik guruhlarining jamiyatdagi o'rni, urbanizatsiya jarayonlari va migratsiya oqimlarini tahlil qiladilar. XIX–XX asrlarda Britaniya mustamlakachiligi doirasida ishchi kuchini jalb qilish siyosati natijasida ko'p millatli jamiyat vujudga keldi. Bu davr millatlararo iqtisodiy ixtisoslashuv, siyosiy muvozanat va ijtimoiy tabaqalanishning shakllanishiga turtki berdi. Talabalar shuningdek, etnik tarkibning siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rganadilar. Malaylar aholining ~55–60 foizini, xitoylar ~23 foizini, hindlar ~7 foizini, boshqa guruhlar esa ~10 foizni tashkil qiladi. Mavzu orqali ko'p millatli jamiyatning murakkab ijtimoiy mexanizmlarini tushunish imkoniyati yaratiladi.

21-mavzu. Til siyosati va ko'p tillilik: milliy birlik va madaniy identitetni shakllantirish

Bu mavzu Malayziyada til siyosati, ko'p tillilik va madaniy identitetni o'rganishga qaratilgan. Bahasa Melayu milliy til sifatida ishlatilishi, ingliz tili va boshqa mahalliy tillarning xalqaro va mintaqaviy kommunikatsiyada roli tahlil qilinadi. Til siyosati milliy birlikni mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Mavzu ko'p millatli jamiyatda tilning siyosiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyatini yoritadi. Barcha davlat maktablarida Bahasa Melayu majburiy fan sifatida o'qitiladi, bu esa milliy identitetni saqlash va etnik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ingliz tili xalqaro hamkorlik va ilmiy faoliyat uchun muhim vosita sifatida o'rganiladi.

22-mavzu. Malayziya iqtisodiyoti: xomashyo, sanoat va global savdo

Ushbu mavzu Malayziyaning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishini va global savdo tizimidagi rolini o'rganishga bag'ishlangan. Agrar davlatdan sanoatlashgan davlatga o'tish jarayonini, palma yog'i, kauchuk, elektronika va boshqa strategik mahsulotlar ishlab chiqarishning iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'rganiladi. Davlatning iqtisodiy siyosati, eksportga yo'naltirilgan strategiyasi va xomashyo resurslarini samarali boshqarish mexanizmlari tahlil qilinadi. Malayziya dunyoning yirik elektronika eksportchilardan biri bo'lib, xomashyo eksporti orqali ham milliy iqtisodiy o'sishga erishgan. Mavzu iqtisodiy rivojlanish va siyosiy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

23-mavzu. Malayziya tashqi siyosati va ASEANdagi strategik roli

Mavzu Malayziyaning tashqi siyosati, mintaqaviy diplomatiyasi va

ASEANDagi o'rmini o'rganishga qaratilgan. Malayziyaning savdo, xavfsizlik va siyosiy hamkorlikdagi faoliyatini, shuningdek, global va mintaqaviy geopolitik muvozanatdagi rolini tahlil qilinadi. 1967-yilda tashkil etilgan ASEAN orqali Malayziya mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va siyosiy manfaatlarini ilgari surishda faol ishtirok etadi. Mavzu tashqi siyosatning ichki iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikning Malayziya rivojlanishidagi rolini yoritadi.

24-mavzu. Zamonaviy Malayziyada madaniyat, din va globallashuv jarayonlari

Ushbu mavzu Malayziyada madaniyat, din va globallashuvning uzviy bog'liqligini o'rganadi. Islomning milliy qadriyat sifatida saqlanishi, shahar madaniyati, kino, musiqa va zamonaviy ta'lim tizimi orqali globallashuv jarayonlarini tahlil qilinadi. Malayziya yirik shaharlari, xususan Kuala-Lumpur, global madaniyat va lokal an'analar uyg'unligi misolida ko'p millatli jamiyatning madaniy barqarorligini namoyon qiladi. Mavzu zamonaviy ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tushunish, shuningdek, milliy identitetni saqlash va global integratsiya strategiyalarini o'rganishga xizmat qiladi.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "O'rganilayotgan mintaq (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Malayziya)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

O'rganilayotgan mintaq (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Malayziya) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Malayziyaning geografik makoni va tarixiy taraqqiyotiga ta'sir etgan geosiyosiy omillar

2. Malayziya hududining shakllanish tarixi va tabiiy-relyef xususiyatlari

3. Malayziyada iqlim va uning xo'jalik hamda tarixiy taraqqiyotga ta'siri

4. Malayziya suv resurslari va ularning sivilizatsiyalar rivojidadagi o'rni

5. Malayziya tabiiy boyliklari va mustamlakachilik davri iqtisodiy siyosati

6. Malayziyaning ekologik muhiti va tarixiy demografik jarayonlar

7. Malay arxipelagida qadimgi sivilizatsiyalar

8. Hindu-buddaviy davlatlar davri (I–XIV asrlar)

9. Malakka sultonligining tashkil topishi (XV asr)

10. Islom sivilizatsiyasining Malay yarimoroliga ta'siri

11. Yevropa mustamlakachiligining boshlanishi: Portugaliyaning Malakkani

- bosib olishi va dengiz savdo yo'llari uchun kurash (1511–1641)
12. Savdo mustamlakachiligidan kompaniya hukmronligiga o'tish: Gollandiya Sharqiy Hind kompaniyasining Malakkadagi siyosati (1641–1824)
 13. Zamonaviy Malayziya davlat tizimining shakllanishi: Buyuk Britaniya mustamlakachiligi davri (XIX asr – 1957)
 14. Etnik-demografik muhitning shakllanishi: Xitoy va Hindiston migratsiyasi hamda ko'p millatli Malayziya jamiyatining vujudga kelishi (XIX–XX asrlar)
 15. Mustamlakachilik davrida Malayziya iqtisodiyotining shakllanishi: plantatsiyalar, kon sanoati va tashqi bozorlar
 16. Ikkinchi jahon urushi davrida Malayziya: Yaponiya bosqini va mustamlakachilik tizimining inqirozi (1941–1945)
 17. Malayziyaning mustaqillikka erishish jarayoni va milliy davlatchilikning shakllanishi (1945–1957)
 18. Malayziya Federatsiyasining tashkil topishi va milliy hududiy birlashuv siyosati (1963-yil)
 19. Malayziya davlat tuzumi va siyosiy boshqaruv tizimi: konstitutsiyaviy monarxiya va federal boshqaruv
 20. Malayziyaning etnik tarkibi va demografik rivojlanishi: ko'p millatli jamiyatning shakllanishi
 21. Til siyosati va ko'p tillilik: milliy birlik va madaniy identitetni shakllantirish
 22. Malayziya iqtisodiyoti: xomashyo, sanoat va global savdo
 23. Malayziya tashqi siyosati va ASEANdagi strategik roli
 24. Zamonaviy Malayziyada madaniyat, din va globallashuv jarayonlari

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
 - ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
 - fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
 - mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
 - kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.
- Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*
- mavzu yuzasidan tahlil ma'lumot (esse) tayyorlash;
 - badiiy-ijodiy ishni bajarish;
 - kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Malayziya)” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Qadimgi Hind yozuvlarining Malay arxitektura yodgorliklarida aks etishi

2. Portugaliya istilosi davridagi tarjimalar va diniy matnlar

3. Britaniya mustamlakachiligi davrida lug'atchilik va Malay tilini tizimlashtirish jarayoni

4. Malakka sultonligi davridagi diplomatik yozishmalar va ularning tarixiy-madaniy ahamiyati

5. Malay tilining rasmiy davlat tili sifatida shakllanishi: til siyosati va milliy identitet

6. Malayziyada matbuot tarixi: XIX asrdan bugungi kungacha gazeta va jurnallar rivoji

7. Mustamlakachilik davrida malay madaniyati va san'ati: arxitektura, hunarmandchilik va kiyim-kechak

8. Bugungi kunda Malayziya hukumron partiyalari va ularning siyosiy strategiyalari

9. Malayziyada jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar: ijtimoiy hamkorlik va siyosiy ta'sir

10. Malayziyada media va siyosiy jarayonlar: OAVning roli

11. Malayziya va xalqaro siyosiy hamkorlik: ASEAN va boshqa mintaqaviy integratsiya

12. Tunku Abdul Rahman – Malayziyaning birinchi bosh vaziri va milliy birlashuv ramzi

13. Tun Dr. Mahathir Mohamadning Malayziyada iqtisodiy modernizatsiyasi va siyosiy islohotlari

14. Anwar Ibrahim: siyosiy qayta tiklanish va iqtisodiy islohotlar

15. Malayziyada millatlararo munosabatlar va ko'p millatli jamiyat modeli: malay, xitoy va hind jamoalarining tarixi va o'zaro ta'siri

16. Malayziyada til va yozuv tarixi: qadimgi yozuv tizimlaridan zamonaviy til siyosatigacha

17. Malayziyada ta'lim tizimi va til siyosati: malay, ingliz va mandarin tillarining o'zmi

18. Malayziyada urbanizatsiya va zamonaviy shahar madaniyati: Kuala Lumpur va boshqa megapolislar tajribasi

19. Malayziyada diniy plyuralizm amaliyoti: dinlararo muloqot va diniy bag'rikenglik siyosati

	<p>20. Malayziyada yoshlar siyosati va “Yoshlar harakati”ning siyosiy va madaniy hayotdagi oʻrni</p> <p>21. Malayziyada turizm va “halal tourism” konsepsiyasi: iqtisodiy daromad va milliy brend</p> <p>22. Malayziyada gender masalalari: ayollarning siyosiy hayotdagi ishtiroki va jamiyatdagi oʻrni</p> <p>23. Malay adabiyoti va milliy identitet: adabiyotning jamiyatda oʻzlikni anglash jarayonidagi oʻrni</p> <p>24. Malakka sultonligi davridan boshlab diniy maktablar (madrasalar), islomiy yozma manbalar va ularning filologik ahamiyati</p> <p>25. Britaniya mustamlakachiligi davrida til, adabiyot va madaniyatga taʼsir, ingliz tilining rasmiy til sifatida shakllanishi</p> <p>26. Malay xalq qahramonlari, tarixiy shaxslar va milliy identitetning ommaviy madaniyatda ifodalanishi</p> <p>27. Malayziyada intellectual “reverse migration”: xorijdagi mutaxassislarning qaytishi va ularni jalb etish siyosati</p> <p>28. Malayziyada raqamli madaniyat va internet tilining shakllanishi: yoshlar nutqi, ijtimoiy tarmoqlar va lingvistik oʻzgarishlar</p> <p>Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>Talabalarni mustaqil taʼlim shaklini tashkil etishga qoʻyilgan talablar Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy taʼlim muassasalari talabalari mustaqil taʼlimini tashkil etish boʻyicha namunaviy tartibni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi buyrugʻi asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil taʼlimni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p>
3.	<p>V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p><i>Talaba bilishi kerak:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Oʻrganilayotgan mintaqa (mamlakat) geografiyasi va tarixi (Malayziya) fanining maqsad va vazifalari, indonez tarixining asosiy bosqichlari, Malayziyaning dunyo madaniyatiga qoʻshgan hisssani mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida malay xalqlarning sanʼati, madaniyati va urf-odatlari, Malayziya tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, XI-asrdan to hozirgi kungacha boʻlgan Malayziyaning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Malayziya tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga taʼsir koʻrsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Malayziyada tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning oʻziga xos xususiyatlari, Malayziya tub aholisining siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Malayziyada ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning taʼsiri darajasi, Malayziya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yoʻnalishlari, Malayziya tarixi bilan

	<p>bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosi, tarixning muhim ijtimoiy-siyosiy voqeiklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Malayziya tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda Indoneziya tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Indoneziyaning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendentsiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, Indoneziyadagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Indoneziya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqeiklarni tahlil qilish, Indoneziya tarixiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • Malayziya va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishlash, Malayziya tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, Malayziya tarixini, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Malayziyaning tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida Malayziya tarixini tahlil qilish, Malayziyadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, Indoneziyaning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Indoneziya tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Malayziya tarixining asosiy parametrlari va tendentsiyalarini yoritish va tahlil qilish, Indoneziya tarixining ijtimoiy-siyosiy voqeiklarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • videomahsulotlardan foydalanish; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyihalar; • organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.

**VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA
AXBOROT MANBALARI**

Asosiy adabiyotlar

1. Azizova F. V. Xorijiy Sharq mamlakatlari geografiyasi: I, II qism; o'quv qo'llanma – T.: 2011.
2. Abdalova Z.T., Tojjeva Z.N. Iqtisodiy geografiya: o'quv qo'llanma - T.: "Moliya", 2013 – 219 b.
3. Тюрии В.А. История Малайзия. Издательство "Наука", М., 1980.
4. Родригес. Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. (1945-2000 г). Учебно-методическое пособие для вузов. Часть 2- 3. М., 2001 г.
5. N. Nizomiddinov. Qadimgi Malayziya tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati, T., 2016

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
8. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
9. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
10. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
11. Melvin, Jess. The Army and the Indonesian Genocide: Mechanics of Mass Murder. 2018.
12. Vickers, Adrian. A History of Modern Indonesia. Cambridge University Press. 2005.
13. Bellwood, Peter, The Austronesians: Historical and Comparative Perspectives. 2006. /ISBN 0 731521 32 3/.
14. Durand, Frédéric, Françoise Cayrac-Blanchard, Stéphane Dovert. Indonésie - Un demi-siècle de construction nationale. L'Harmattan, 2000

Scopusdan maqolalar

15. Simon Kaae Andersen, Johanna Staerk, Elham Kalhor, Daniel J.D. Natusch, Rita da Silva, Beate Pfau, Dalia A. Conde Economics, life history and international trade data for seven turtle species in Indonesian and Malaysian farms // Data in Brief Volume 34 February 2021, 106708
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352340920315870/pdf?md5=cb3d5dbb9e93ecf7f417dea06ed85759&pid=1-s2.0->

	<p>S2352340920315870-main.pdf</p> <p>16. Izziah Suryani Mat Resad Arshad, Ermy Azziaty Rozali, Azmul Fahimi Kamaruzzaman., The Importance of Learning Islamic History and Civilization of Malaysia in the Building of Human Capital and Identity of the Muslim Society in Malaysia // Procedia - Social and Behavioral Sciences Volume 59, 17 October 2012, Pages 550-557 https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042812037615/pdf?md5=2b3eb26607b5ca91f509bd69bdc27723&pid=1-s2.0-S1877042812037615-main.pdf</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>17. www.gov.uz 18. www.lex.uz 19. www.tradingeconomics.com 20. https://unctadstat.unctad.org 21. http://uzgeo.uz 22. http://geographer.ru 23. www.tuik.gov.tr 24. https://www.tcmb.gov.tr 25. https://www.history.ru 26. https://www.infoplease.com 27. https://www.istor.org 28. https://www.academia.edu</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Arabshunoslik oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "21" 06 dagi 13 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: M.B.Samiyeva - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" o'qituvchi - stajyori</p>
9.	<p>Taqrizchilar: S.B.Shodmonova - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrası professori, tarix fanlari doktori</p>

24